

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

“INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY
TARBIYA VA SPORTNING ZAMONAVIY
TENDENSIYASI”

«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ФИЗИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В РАЗВИТИИ
ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА»

“MODERN TRENDS IN PHYSICAL EDUCATION AND
SPORTS IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL”

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI

2025-yil, 22-noyabr

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

1.	B.B. Ma'murov	– Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2.	Z.M. Muqimov	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3.	G.R. Akramova	– Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4.	A.R.Nurullayev	– Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a'zo;
6.	M.B.Ibragimov	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası mudiri, a'zo;
7.	L.A.Azimov	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası mudiri, a'zo;
8.	A.K.Ibragimov	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası professori, a'zo;
9.	F.B.Muzaffarova	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini, a'zo;
10.	B.B.Sadullayev	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası dotsenti, a'zo;
11.	M.M.Turayev	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrası dotsenti, a'zo;
12.	N.M.Muxitdinova	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası dotsenti p.f.f.d.(PhD), a'zo;
13.	M.E.Sattorov	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası o'qituvchisi p.f.f.d.(PhD), a'zo;
14.	Ya.Z.Fayziyev	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası dotsenti, kotib;

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

1.	M.M. Bafayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;
2.	M.L. Umedjanova	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini;
3.	A.R.Nurullayev	– Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a'zo;
4.	M.B.Ibragimov	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası mudiri, a'zo;
5.	L.A.Azimov	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası mudiri, a'zo;
6.	F.B.Muzaffarova	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini, a'zo;
7.	M.I.Toshev	– O'quv ishlar bo'yicha dekan muovini, a'zo;
8.	Ya.Z.Fayziyev	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası dotsenti, a'zo;
9.	N.R.Sobirova	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası dotsenti, a'zo;
10.	H.E.Nazarova	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
11.	Г.М.Акрамова	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
12.	S. S. Narzullayev	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
13.	U.R.Haydarov	– “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
14.	G'.K.Saidov	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
15.	Z.X.Usmonov	– “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

etishdan, sezgilarning ishonchliligidan, konkret obrazli tafakkur protsessisidan mahrum etadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri harakatlarga o'rgatishda ta'limning joqori darajasiga erishishga intilib ta'limning turli usullari: ko'rgazmali, og'zaki va amaliy usullaridan o'zaro aloqadorlikda foydalanadi. SHunday qilib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, mashqlarning ular tomonidan ongli o'zlashtirilishiga, muayyan sharoitlarda ularni mustaqil va ijodiy qo'llashga yordam beradi. O'quvchilarni harakatlarga o'rgatishda ko'rgazmalilikning turli usullaridan foydalaniladi. Yaqqol ko'rish usullari harakat yoki ayrim harakat elementlarining tarbiyachi tomonidan to'g'ri va aniq namoyish etilishidan; tevarak-atrofdagi hayot ko'rinishlariga taqlid qilishdan; masofani bosib o'tishda mo'ljal olishdan foydalanish; ko'rgazmali qo'llanmalar-kinofilmlar, kinogrammalar, teleeshittirishlar, suratlar va hokazolardan foydalanishdan iboratdir. Taktil- muskul ko'rgazmaliligi o'quvchilarning harakat faoliyatiga jismoniy tarbiya qo'llanmalarini kiritish bilan ta'minlanadi.

Masalan, tizzani baland ko'tarib yugurish ko'nikmasini hosil qilish maqsadida ketma-ket qo'yilgan yoy shaklidagi darvaozachalar qo'llaniladi. Yugurish paytida oyoqni bu to'siqlar osha ko'tarib o'tish o'quvchining tizzani baland ko'tarish ko'nikmasini egallashiga yordam beradi. Bundan tashqari predmetlar o'quvchiga yo'l qo'yilgan xatosini his qilish va tushunish imkonini beradi. O'quvchi ongida o'qituvchining "darvaozachaga tegib ketmaslik" haqidagi topshirig'ining saqlanib qolishi xato qilayotgan paytida teri muskul sezgisi bilan bog'lanadi va bola o'z harakatining noto'g'riligini o'zi aniqlay oladi.

Bundan tashqari ko'rsatib o'tilgan usullar turli komandalar, farmoyish va signallarni aniq, emotsional va ta'sirchan tarzda berishda ham ifodalanadi. Qofiyali tekstlarning musiqiyligi va ritmliligi o'quvchilarda emotsional ruh uyg'otadi, natijada bu qofiyalar ular tomonidan oson o'zlashtiriladi va keyinchalik mustaqil o'yinlarda foydalaniladi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari 4,5 va ayniqsa 6 yoshli bolalar o'zlariga mos turli harakat faoliyatining vazifa va shartlarini tushunib olishda etarli tayyorgarlikka ega ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishda og'zaki ta'sir etish usullaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ular faqat ko'nikmalarni egallash sur'atini emas, balki sifatini ham oshiradi. "Bola rivojlanishining keyingi bosqichlarida og'zaki ta'sir etish tizimi yordamida avvalgi taassurotlar izlarining yangi birikma va kombinatsiyalarda jonlanishi joz beradi. Bundan asosan birinchi bor sof og'zaki ko'rsatma va tushuntirishlar yordamida yangi muvaffaqiyat aloqa o'rnatish, yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni tug'iladi".

Maktab yoshida harakat ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan bolaning mashq mazmuni va strukturasi, ya'ni uning barcha elementlarini qaysi izchillikda va qanday bajarish kerakligini anglash darajasiga bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, o'qituvchi tomonidan berilgan namunaga quruq taqlid qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunda harakat ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni ko'pincha mexanik tarzda kechadi. Ana shunday hollarda o'quvchilar jozaki qaraganda mashqlarni durust bajaradilar. Biroq mashq tugagandan so'ng o'quvchidan qanday harakat qilish kerakligi so'ralganda ko'pchilik hollarda u bu savolga aniq javob bera olmaydi. To'g'rirog'i, o'quvchi javob berish o'rniga harakatni qayta bajara boshlaydi.

P.F.Lesgaft: "Agar o'quvchi biror bir mexanik metodni uning ayrim usullarining ma'nosini mutlaqo tushunmay o'zlashtirar ekan, u mexanik tarzda harakat qiladi-u mazkur metodni muayyan bir vaziyatga tatbiq eta olmaydi", deb yozgan edi. P.F.Lesgaft ta'rificha, "harakat haqidagi tasavvur" gavdaning harakatlanuvchi qismlari, harakat amplitudasi, yo'nalishi, tezligi, tarangligi va boshqa harakat komponentlari haqidagi tasavvurdan kelib chiqadi. Shunday ekan,

bunday hollarda o'quvchida gavdaning harakatlanuvchi qismlarining o'zi his etadigan barcha tarkibiy qismlari bilan mujassamlashgan obrazi vujudga keladi.

O'quvchilar mashqlarni og'zaki topshiriqqa asosan bajarib bo'lishgach, o'qituvchi uning alohida elementlarining to'g'ri bajarilgani mazkur holat uchun zarur bo'lgan ko'rsatma, ko'rgazmali namoyish, tushuntirish kabi usullarning istalgan bittasi orqali aniqlaydi. Bu bolalar tomonidan anglab olingan topshiriqni amaliy tekshirish orqali aniqlashga xizmat qiladi.

Harakat faoliyatiga o'rgatishning yuqorida keltirilgan metodikasi professor A.I.Puni tadqiqotlariga tayanadi. Unda tasavvurning harakat ko'nikmalarini shakllantirish va harakatning mashq qildiruvchi ta'sirining roli ochib berilgan. Bu psixologiyada “ideomotor reaksiyasi” deb ataladigan o'ziga xos jarayonda ifodalanadi. U o'quvchilarda ularga beriladigan harakatli topshiriqlarga nisbatan juda barqaror qiziqish va emotsional munosabatning vujudga kelishi hamda saqlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi. Bu topshiriqlar bajarilishi uchun zarur qarorni izlashga yo'naltirilgan tafakkur aktivligini talab qiladi. (Masalan, yurish, yugurish va sakrashlarni navbati bilan bajarishda quyidagi topshiriq beriladi: harakatlarni almashtirish uchun signal formasini o'ylab topish, ularni almashtirib turish tartibini taklif etish va nega undoq emas, bundoq bajarish sabablarini keltirish va boshqalar).

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga bunday mashqlar (elementlar va bajarilishi oson mashqlar), shuningdek ularni egallangan bilim va harakat ko'nikmalari (harakatlar texnikasi va ularni bajarish usullari, fazoda mo'ljal olish, mashg'ulotlarda harakatlarning almashinib turishi va hokazo) asosida qiziqarli hal qilish taklif etilganda ular aktivlik va ishtiyoq namoyon qilishlarini ko'rsatmoqda. Ko'rsatib o'tilgan topshiriqlar aqliy va ijodiy aktivlikning rivojlanishiga, tashkilotchilik ko'nikmalarini ko'zlab, maqsadli harakat qilishga, topqirlik va atrof-muhitda mo'ljal ola bilishni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усуляти. 2000 й. Тошкент.
2. Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. 2001й. Тошкент.
3. Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Жисмоний тарбияда педагогик технологиялар. 2002 й. Тошкент.
4. Шарипов Т.Ю., Усмонходжаев Т.С. Жисмоний тарбия. Дарс ишланмалари ва ҳаракатли ўйинлар. 2005 й.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA PEDAGOGIK EMPATIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

A.Sh.Azimova
Buxoro davlat universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tarbiyachining empatiya qobiliyati bolaning psixologik holatini o'z hissiy tajribasiga asoslangan holda, hissiy assotsiatsiyalar va ko'chirish orqali tushunishida namoyon bo'ladi. Empatiya - bu hamdardlik, ya'ni boshqa odamning his-tuyg'ularini o'z his-tuyg'ularini

butunlay eritib yubormasdan, uni aks ettirish va qabul qilish qobiliyati. Tarbiyachilik kasbining asosi - bu boshqalar: bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan o'zaro munosabat. Maktabgacha ta'limning ta'lim jarayonida empatiya "muvaqqiyatli muloqot" va muvozanatli shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga hissa qo'shadigan tarbiyachilar uchun professional muhim sifat hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, bola, empatiya, kasb, maktabgacha ta'lim, ta'lim, bilim, qobiliyat, shaxs, madaniyat, psixologiya, pedagogika.

Аннотация. Способность педагога к эмпатии проявляется в понимании психологического состояния ребёнка на основе собственного эмоционального опыта, через эмоциональные ассоциации и вытеснение. Эмпатия – это сочувствие, то есть способность отражать и принимать чувства другого человека, не растворяясь полностью в своих. Основа педагогической профессии – взаимодействие с окружающими: детьми, родителями, коллегами. Эмпатия в образовательном процессе дошкольного образования – профессионально важное качество педагога, способствующее построению «успешной коммуникации» и сбалансированных межличностных отношений.

Ключевые слова: педагог, ребёнок, эмпатия, профессия, дошкольное образование, образование, знания, способности, личность, культура, психология, педагогика.

Annotation. The ability of a teacher to empathize is manifested in understanding the psychological state of a child based on his own emotional experience, through emotional associations and displacement. Empathy is sympathy, that is, the ability to reflect and accept the feelings of another person without completely dissolving in his own. The basis of the teaching profession is interaction with others: children, parents, colleagues. Empathy in the educational process of preschool education is a professionally important quality for teachers, contributing to the establishment of "successful communication" and balanced interpersonal relationships.

Keywords: teacher, child, empathy, profession, preschool education, education, knowledge, abilities, personality, culture, psychology, pedagogy.

Tarbiyachilik kasbining asosiy mazmuni boshqa shaxs: bola, ota-ona, hamkasb bilan o'zaro munosabatlardan iboratdir. Empatiyaning asosi hissiy sezgirlik, aql va atrof-muhitni oqilona idrok etishdir. Pedagogik empatiya - tarbiyachining hissiy xususiyati bo'lib, u ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarda, ularning bir-birini idrok etishida va ular o'rtasida o'zaro tushunishni o'rnatishda katta rol o'ynaydi. Hissiy madaniyatning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hissiy barqarorlik, moslashuvchanlik va empatiyaning yuqori darajada rivojlanganligidir. Tarbiyachining empatiya qobiliyati bolaning psixologik holatini o'z hissiy tajribasiga asoslangan holda, hissiy assotsiatsiyalar va ko'chirish orqali tushunishida namoyon bo'ladi. Empatiya - bu hamdardlik, ya'ni boshqa odamning his-tuyg'ularini o'z his-tuyg'ularini butunlay eritib yubormasdan, uni aks ettirish va qabul qilish qobiliyati. Tarbiyachilik kasbining asosi - bu boshqalar: bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan o'zaro munosabat. Maktabgacha ta'limning ta'lim jarayonida empatiya "muvaqqiyatli muloqot" va muvozanatli shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga hissa qo'shadigan tarbiyachilar uchun professional muhim sifat hisoblanadi. Empatiya - bu boshqa odamning hissiy holatini aks ettirish va tushunish, boshqasiga rahm-shafqat yoki hamdardlik hissi, xatti-harakatlarga faol yordam berishni o'z ichiga olgan hissiy hodisa. Empatiyaning asosi hissiy sezgirlik, aql va atrof-muhitni oqilona idrok etishdir. Empatiya, har qanday hissiy hodisa kabi, rivojlanishi va takomillashtirilishi mumkin. Uni tarbiyalash

mumkin va kerak. Psixologning roli tarbiyachilarning empatiya tushunchasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va uni insonning ichki dunyosini tushunishga yordam beradigan munosabatlar tizimiga birlashtirishdan iborat. Shu maqsadda maktabgacha tarbiyachilarda empatiyani kasbiy va shaxsiy sifat sifatida rivojlantirish bo'yicha ish tizimi qo'llanilmoqda. U nazariy bosqichni o'z ichiga oladi - maslahat davomida tarbiyachilar empatiya tushunchasi va muloqotda ushbu shaxsiy xususiyatning ahamiyati bilan tanishadilar. Ikkinchi bosqich amaliy bo'lib, ularga empatiyani talab qiladigan muammolarni hal qilishda tajriba orttirishga yordam beradigan o'quv mashqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu ishda empatik madaniyatni rivojlantirishga yordam beradigan bir qator hissiy va intellektual usullarni taklif qiladigan dialogik muloqot usuli katta ahamiyatga ega. Mana ulardan ba'zilari:

Boshqa shaxsni tushuna olish - bu o'zini boshqa odamning holati yoki pozitsiyasiga qo'yish orqali tushunish usuli. Bu bizga ularning ichki holatini, niyatlarini, motivlarini va his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilish - suhbat davomida boshqa shaxs tomonidan bildirilgan asosiy g'oyalar va his-tuyg'ularni umumlashtirish uchun ishlatiladigan usul. Bu boshqa odamning xabarining to'g'riligiga ishonchni ta'minlaydi. "Ko'zgu" oxirgi iborani boshqa so'z tartibi bilan takrorlash usuli bo'lib, bu boshqa odamga o'z bayonotini tushunishga yordam beradi. Ushbu uslub munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan.

"To'g'ri ism" - suhbatdosh bilan muloqot qilishda siz tez-tez unga ism bilan murojaat qilishingiz kerak, bu esa u har doim ham tushuna olmasligi mumkin bo'lgan qoniqish hissini keltirib chiqaradi.

Rag'batlantirish va ishontirish - bu tarbiyachining boshqa odamning fikrlari va his-tuyg'ularini tan olishga tayyorligini tasdiqlash usullari. Bunday javoblarga misollar: "Ha, men sizning his-tuyg'ularingizni tushunaman", "Eshitish yoqimli" va boshqalar.

Emotsional javob - bu hayotning ma'nosi, hodisasi va holatini bevosita tajriba orqali aks ettirish. Tashqi tomondan, bu mimika, nutq va pantomima orqali ifodalanadi.

Muloqot paytida tarbiyachining empatik madaniyatini rivojlantirish jarayonini rag'batlantirishning tavsiya etilgan usullari boshqa texnikadan foydalanishga yordam beradi - shaxsiy aloqani o'rnatish. Shaxsiy aloqa sensorli (tegishli), vizual (nigoh orqali), og'zaki (so'zlar orqali) yoki jismoniy (imo-ishoralar orqali) bo'lishi mumkin. Muloqotning eng qimmatli shakli - bu yuzga qaratilgan nigohdir, shunda suhbatdoshingiz o'zini tushunilganini his qiladi va unga ishonadi. Ijoiy mustahkamlash katta hissiy ahamiyatga ega bo'lgan texnikadir. Bu sodir bo'lgan yoki qilingan narsadan qoniqish hissini his qilish uchun odamga ta'sir qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu uslub nafaqat ularning harakatlari va harakatlariga emas, balki shaxsning kuchli tomonlariga urg'u beradi. Mustahkamlash yuz (tabassum, mehribon qarash), vizual (do'stona imo-ishora, qo'ling jo'shqin to'lqini), teginish (silash), og'zaki (mehribon so'z, iltifot) bo'lishi mumkin. Ushbu usullarning barchasi mashg'ulotlarga kiritilgan mashqlarga kiritilgan. Ularda ishtirok etish boshqa shaxsni his qilish, kirish va ma'lum bir holat va sharoitlarga jalb qilish orqali hissiy jihatdan tushunish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аисмонтас Б.Б. Педагогическая психология. – Москва: ВЛАДОС-ПРЕСС издательство, 2002. – 242 п.
2. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. – Псков: С.М. ПГПИ. Киров, 2004. – 216 б.

3. Володина С.А. Эмпатия как необходимое условие эффективности профессиональной деятельности педагога [Текст] / С.А. Володина // Проблемы современного образования. – 2018. – № 1. [Электронный ресурс]. – Режим доступа <https://cyberleninka.ru/article/n/empathy-like-neobxodimoe-usloviye-effektivnosti-professionalnoy-deyatelnosti-pedagoga>.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA 4K NING ROLI

Sharopova Mohinur Bobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistri

Maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarida ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonida 4K modelining pedagogik ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Ta'lim jarayonida 4K yondashuvi o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, guruhda samarali ishlash va fikrlarini aniq ifoda etish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, ijodiy tafakkur, boshlang'ich sinfi, tanqidiy fikrlash, pedagogik metodika.

В статье рассматривается педагогическая значимость модели 4K в процессе формирования креативного мышления у учеников начальной школы. Подход 4K в образовательном процессе позволяет развивать у учащихся креативное и критическое мышление, эффективно работать в группе и ясно выражать свои мысли.

Ключевые слова: модель 4K, творческое мышление, начальная школа, критическое мышление, педагогическая методика.

The article discusses the pedagogical significance of the 4K model in the process of developing creative thinking in primary school students. The 4K approach in the educational process enables students to develop creative and critical thinking, work effectively in groups, and express their ideas clearly.

Keywords: 4K model, creative thinking, primary school, critical thinking, pedagogical methodology.

Bugungi ta'lim jarayoni zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, boshlang'ich sinfi o'quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ijodiy tafakkur nafaqat yangi g'oyalar yaratish, balki muammolarga innovatsion echim topish va tanqidiy fikrlashni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, 4K modeli pedagogik jarayonda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

4K modeli ta'limning asosiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki uni tahlil qilish, yangi g'oyalar yaratish, guruhda samarali ishlash va fikrlarini aniq ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4K modeli tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, hamkorlik, muloqot kabi qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Uning mohiyati shundaki, u o'quvchilarni passiv bilim qabul

MUNDARIJA

1-SHO'BA: INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING ZAMONAVIY TENDENSIYASI.....	4
JISMONIY TARBIYA VA SPORT - SOG'LOM AVLOD TARBIYASINING OMILLARIDAN BIRI, Ma'murov Baxodir Baxshullaevich.	5
ОТ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ К ОСОЗНАННОМУ ВЫБОРУ: НОВАЯ ФИЛОСОФИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ВУЗЕ., Бобокулова Маржона Алишеровна, Тураев Махмуд Мухамедович.....	8
SPORT SOHASI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING ILMIY ASOSLARI. Jo'rayeva Zarifa Oltinboy qizi, Baxromova Ra'no Rustamovna	11
7-10 YOSHLI BADMINTONCHI BOLALARGA HARAKAT TEXNIKASINI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Ma'murov Bahrom Baxshullayevich.....	15
TALABALARDA ILMIY IZLANISH FAOLIYATINING STRESS OMILLARINI ANIQLASH V,A KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI. Latipov Rahmon Ravshanovich, Jumayeva Marjona Namoz qizi	19
TALABALARDA ILMIY IZLANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TA'SIRI. Latipov Rahmon Ravshanovich, Murodov Nozim Maxmud o'g'li	25
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА. Муминова Сабина Рахматовна, Тураев Махмуд Мухамедович.....	29
ЎЗБЕКИСТОНДА ПАРАЛИМПИА ХАРАКАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Узоқов Абдулхай Хошимжон ўғли, Ибрагимов Бехзод Бахтиёрович.....	32
МАКТАВ ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI. Mansurov Sherzod Shuxratovich, Xamidov Nozimbek Nasriddin o'g'li	34
SPORT TRENERI FAOLIYATIDA SPORT TANLOVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Mamadiyeva Hulkanbonu.	38
УСОВЕРШЕНСТВОВАТЬ РАЗЛИЧИЯ В СКОРОСТИ БЕГА В ЭЛИТЕ ГИМНАСТЫ. Садуллаев Азимжон Баходирович, Нишанбаев Бекдиёр Саъдулла угли.....	41
2-SHO'BA: МАКТАВГАЧА ВА МАКТАВ ТА'ЛИМИ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLARI.....	47
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA BOLALARNI	48

HARAKAT FAOLIYATIGA O'RGATISH USULLARI. A.R.Nurullayev, Xamidov Nozimbek Nasriddin o'g'li.....	
BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA PEDAGOGIK EMPATIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. A.Sh.Azimova.....	50
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA 4K NING ROLI. Sharopova Mohinur Bobirovna	53
BOSHLANG'ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI. Aminov Akobir Azimovich, Sunnatov Xushnud Umedjon o'g'li	56
JISMONIY TARBIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINING O'ZIGA XOSLIGI. Aminov Akobir Azimovich.....	58
BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA PEDAGOGIK EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH. A.Sh.Azimova	61
YOSH SPORTCHILARNI TAYYORLASHNING NOAN'ANAVIY VOSITA VA USLUBLARI. Ibragimov Alisher Karomatovich, Aslonov Madiyor Abbosovich	63
РОЛЬ СЕМЬИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВЬЯ У ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. Каюмова Анелия Ильнуровна, Джураева Махасту Зокур кизи.....	66
3-6 YOSHLI BOLALARDA JISMONIY FAZILATLARNI O'YINLI METODLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. Mardonova Xonzoda Ulugbek Qizi, Saidov G'olibjon Komilovich.....	68
1-12 YOSHLI YENGIL ATLETIKACHILARNI TEXNIK TAYYORLASHDA MASHG'ULOT REJASINI TAKOMILLASHTIRISH. Qurbanov Hakim Haydarqulovich.....	71
DEVELOPMENT OF STRENGTH AND PHYSICAL QUALITIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH PHYSICAL EXERCISES. Usmonov Zufar Khusanugli.....	73
ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НА ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА ПОДРОСТКОВ. Наимова Мафтунабону Файзулложоновна, Алиева Севда Исламовна.....	76
9-10 YASHAR QOBILIYATLI BOLALARNI FUTBOLDA TANLAB OLISH METODIKASI. Baymuradov Radjab Sayfitdinovich.....	80
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HARAKATLI O'YINLARNI O'TKAZISH METODIKASI. Baymuradov Radjab Sayfitdinovich.....	86
АМАЛИЙ ГИМНАСТИКА МАШГУЛОТЛАРИ ОРҚАЛИ КИЧИК СИНФЛАРДА ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ. Саидов И.И, О.Ш.Мирзақулов.....	92
ЎҚУВЧИЛАРДА ЖИСМОНИЙ ҲАРАКАТ, МАЛАКА ВА КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛАНТИРИШ ТАЛАБЛАР. Саидов И.И.....	95
HARAKATLI O'YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY XUSUSIYATLARI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. Sadullayev Baxodir Baxtiyorovich, Ismoilov Abrorbek Bahrom o'g'li.....	98